

## BRONXIT KASALLIGINI BELGILARI VA UNGA QO‘LLANILUVCHI DORI VOSITALARI

Alfraganus University Tibbiyot fakulteti

farmatsiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Sa'dullayeva Saida Jasurbek qizi.

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi bronxit kasaligida qo'llanadigan dorilar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bronxit — o'pkada bronxlar katta va o'rta kattalikdagi havo yo'llari yallig'lanishi. Bu kasallik yo'talni keltirib chiqaradi. Bronxit odatda burun, quloq, tomoq yoki sinuslarda infeksiya sifatida boshlanadi. .

Bugungi kunda bronxit nafas olish tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri sifatida tan olingan. O'tkir va surunkali bronxit mavjud. Bronxit - bu o'pkada olib boradigan havo yo'llarining yallig'lanishidir. O'pka yo'llaridagi yallig'lanish asosan yo'talga sabab bo'ladi. Yo'tal bir necha kundan bir necha haftagacha davom etishi mumkin. Bu bronxitning asosiy belgisi hisoblanadi. Bronxitning 2 turi mavjud. Tutun va boshqa nafas yo'llarni qichishtiruvchi moddalar o'tkir va surunkali bronxitga olib kelishi mumkin.

Surunkali bronxit - yil mobaynida yallig'lanishli yo'tal uchun oy davomida tinimsiz kuzatilsa surunkali holatda organizmda hosil bo'ladi. Bu holat kamida 2 yil davom etadi.

Bronxit kasalligi belgilari: Bir haftadan uch haftagacha davom etadigan doimiy yo'tal bronxitning asosiy belgisidir. Bronxit bilan yo'talayotganda odatda shilimshiq paydo bo'ladi, ammo uning o'rniga quruq yo'tal paydo bo'lishi mumkin. Nafas olayotganda hushtak yoki shitirlash ovozi ham eshitishingiz mumkin xirillash. O'tkir bronxit ko'pincha gripp ko'k yo'tal, traxeit, laringit kabi kasalliklarga hamroh bo'ladi, shuningdek turli viruslar va bakteriyalarning ta'siridan kelib chiqadi. Surunkali

bronxit vaqtinchalik va no'tog'ri davolashda, yoki uzoq muddatli nojo'ya tas'ir allergik omilardan kelib chiqadi.

Bronxit kasaligini davolashda bemorga yallig'lanishga qarshi dori prepratlarini: aspirin, paratsetamol, ibuprofen va bromgeksin, lazolvan, ambroksol kabi dorilar tavsiya etiladi. Undan tashqari nafas olishni osonlantiruvchi inhaliyalar qilish kerak. Bronxit kasalligiga chalingan odam iloji boricha iliq suyuqlik ichishi zarur. Eng sodda variantdan bir kartoshka qaynatiladi bug'dan nafas olish kerak. Bundan tashqari nafas olishni efir moylariga boy evkalipt, himolay qarag'ay, archa va hokazolar.

Bronxitga qarshi antibiotiklar shifokorning retsepti bo'yicha aniqlanadi. Ba'zi hollarda, masalan kasallikning virusli ko'rinishida qabul qilish oddiygina bo'lib qolmaydi. Kattalardagi bronxit uchun antibiotik faqatgina bakterial infeksiya mavjud bo'lsa, buyuriladi. Tavsiya etilgan dorilar orasida: Azitromosin, amoksiklav, levofloksatsin, levospey, leflok va shu sostavga kiruvchi dori vositalarini tavsiya qilish mumkin.

Bronxning yallig'lanishiga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi choralar ko'rilishi kerak:

-Immun tizimini mustahkamlash.

-Sog'lom va ratsional ovqatlanish, shu jumladan tanaga barcha zarur vitaminlar va iz elementlarni iste'mol qilish, zararli mehnat sharoitlari va tamaki chekishni rad etishni o'z ichiga oladi.

-Kattalardagi bronxitning oldini olish boshqa kasalliklarni o'z vaqtida davolashni nazarda tutadi.

-Dam olish maskanlari, sanatoriya va dispanserlarga tashriflar orqali.

Ushbu tezisdan xulosa qilib aytish mumkinki, insonlar orasida rivoj olib borayotgan bronxit kasalligi haqida, uni oldini olish va davolash yo'llari to'g'risida ma'lumotlar yoritib berilgan. Bronxitni o'tkir shaklini xalq tabobati yo'li bilan ham

davolash yo'llari haqida, surunkali bronxitni dori prepratlar bilan davolash yaxshi samara berishi to'g'risida ham aytib o'tilgan. Azizlar o'z sog'ligingizga befarq bo'lmang.

### **Foydaniilgan adabiyotlar**

1. Фармакология с рецептурой Перевод со второго, переработанного и дополненного издания издательства «Медицина» Москва, 1982 Редакция мудир А. Камо лов Вед актор Н. Рустамова Бадиий редактор О. А\$маджонов Техредактор В. Мещчерякова Корректор М. Хайдарова.
2. Ahmedov SH.M., Eshonqulov A.E. , Bekmuhamedov A.A. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi.-[1]2.
3. Xudoyberdiev R.E., Ahmedov N.K., Zohidov X.Z. Odam anatomiyasi.-T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1993, [2].